

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA VA UNING INGLIZ TILI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Sh. Otabayeva ¹

Scientific supervisor: Sattarova Dilrabo Ikrambayevna

Annotatsiya:

Global aloqa vositasi sifatida Ingliz tili dunyo bo'ylab xalqaro aloqa tili bo'lib xizmat qiladi. Uni o'rganuvchilar nafaqat til qoidalarini, balki turli madaniyatlardagi muloqot uslublarini ham o'zlashtirishlari kerak. Madaniyatlararo kommunikatsiya (intercultural communication) – turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro tushunish, muloqot qilish va samarali aloqalarni o'rnatish jarayonidir. Bu faqat til bilish bilan cheklanmay, balki madaniy tafovutlarni tushunish, hurmat qilish va moslashish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kommunikatsiya, ingliz tilini o'qitish, madaniy tafovutlar, global til, xalqaro aloqa, multikulturalizm.

Ingliz tili dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan aloqa tillaridan biri bo'lib, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Uni o'rganuvchilar nafaqat grammatik qoidalarni, balki ingliz tilida muloqot qilish uchun zarur bo'lgan madaniy kontekstni ham bilishlari lozim.

Tilni mukammal o'zlashtirish uchun o'quvchilar turli xalqlarning urf-odatlarini va ijtimoiy odob-axloq qoidalarini bilishlari kerak. Kommunikativ strategiyalar (masalan, bevosita yoki bilvosita muloqot uslublari) haqida tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Masalan, ingliz tilida odatda ochiq va to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirish odatiy bo'lsa, ba'zi boshqa madaniyatlarda bu hurmatsizlik deb qabul qilinishi mumkin.

H.Duglas Braun o'zining „Til o'rganish va o'qitish tamoyillari“ asarida til o'rganishda madaniyatni tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til o'rganuvchilar madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari zarur.

Ingliz tili o'qitish jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiyaning bir necha muhim jihatlari bor. Bulardan birinchisi muloqot samaradorligini oshirishdir. Ingliz tilini o'rganuvchilar xalqaro muhitda turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilganda, ularning nutqiy usublari va odatlarini tushunishi lozim. Bu esa tushunmovchilik va kommunikativ xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchi muhim jihati bu til va madaniyat uyg'unligi. Til faqat grammatik qoidalar va lug'atdan iborat emas, balki u ma'lum bir madaniyatning ifodasidir. Masalan, ingliz tilida ishlatiladigan idiomalar yoki metaforalar ko'pincha G'arb madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ularni tushunish uchun kontekstni bilish zarur. Uchinchi asosiy jihati bu xalqaro ko'nikmalarni rivojlantirish. Bugungi kunda ingliz tilini bilish ishga joylashish va xalqaro hamkorlik uchun muhim talab hisoblanadi. Biroq, faqat ingliz tilida gapira olish yetarli emas – boshqa madaniyat vakillari bilan samarali ishlash ko'nikmalari ham zarur. Eng so'nggi muhim jihati esa stereotiplardan qochish va tolerantlikni shakllantirishdir. Turli madaniyatlarni o'rganish orqali o'quvchilar boshqa xalqlarga nisbatan hurmat va tushunish hissini rivojlantiradi. Bu esa dunyodagi madaniy xilma-xillikni qabul qilishga va stereotiplardan qochishga yordam beradi.

O'qituvchilar o'quvchilarga turli madaniyatlarning kommunikativ xususiyatlarini tushuntirishlari kerak. O'quvchilarni ochiq fikrli bo'lishga va stereotiplardan voz kechishga o'rgatish zarur. Dars davomida madaniyatlararo muhitni yaratish muhim. Ingliz tili o'qitishda madaniyatlararo kommunikatsiya tushunchasini qo'llash, o'quvchilarning global muloqotda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Faqat grammatik va lug'aviy bilimlarga e'tibor qaratish yetarli emas, balki o'quvchilar turli madaniy tafovutlarni tushunish va ularga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Bu esa ularning nafaqat lingvistik, balki kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilni o'qitishdagi kommunikativ aloqalar bu xalqaro bo'limlar va yo'nalishlar uchun ham juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan tashqari madaniyatlar bir-birini aloqa vositalari orqali o'rgansalar ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi biz bu aloqalar orqali ta'limni va tilni rivojlantirishimiz mumkin. Ingliz tili dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan aloqa tillaridan biri bo'lib, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Uni o'rganuvchilar nafaqat grammatik qoidalarni, balki ingliz tilida muloqot qilish uchun zarur bo'lgan madaniy kontekstni ham bilishlari lozim. Madaniyatlararo

¹ Otabayeva Shaxrizoda Quvondiq qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili fakulteti, Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi, 2302-guruh talabasi

kommunikatsiya zamonaviy ingliz tili ta'limining muhim jihatlaridan biridir. Ingliz tilini o'rganish jarayonida faqat grammatikani emas, balki turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ham egallash zarur. Bu esa nafaqat til bilish darajasini oshiradi, balki insonlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatini ham ta'minlaydi. Shuning uchun ingliz tili o'qitish jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiyaga alohida e'tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Absalamov H. *Tilni o'qitishdagi ahamiyati*. - T.: Sharq. 2023.57- bet
- [2]. OG Ulashevna. *About the classification of kinship terms. International Conference humanistic role of language and literature in the journal 2024*
- [3]. AK Uchkunovich. *Mastering The Art Of Writing: Skills, Strategies, And Success. Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific ...*, 2023
- [4]. GU Ochilova. *Teaching vocabulary to english for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. Colloquium-journal, 57-58, 2021*
- [5]. XU Absalamov. *Ingliz Tilida Yozma Nutq Kompetentsiyasining Tadqiqi. Международный Журнал Искусство Слова 6 (4), 2023*
- [6]. SN Jabbarovna. *Appearance of the Concept of Assessment in the Artistic Text. European Scholar Journal 3 (3), 121-125, 2022*
- [7]. OG Ulashevna. *Classification of uzbek kinship terms. International scientific and practical conference proceeding. Exploring ...*, 2024
- [8]. NJ Sulaymanova. *Locative syntaxemes and disaccordance of their antecedent means. Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives, 249-252, 2016*